



Saodat AHMEDOVA,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tadqiqotchisi
E-mail: saodat@mail.ru

SamDCHTI professori, O.G'aybullayev taqrizi asosida

TALABALARDA AXLOQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY MEXANIZMLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada talabalar orasida axloqiy madaniyatning qadr-qimmatini va ahamiyatini, kishilarning xulq-atvori, axloqiy madaniyatni shakllantirishning ahamiyatini bayon etilgan. Shuningdek, axloqiy madaniyatning shakllanishida aql-idrok, tafakkur va his-tuyg'u ham muhim o'rin tutishi kabi ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, talaba, axloq, madaniyat, etika, ma'naviyat, jamiyat, shaxs, fazilat.

СОЦИО-ФИЛОСОФСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У СТУДЕНТОВ

Аннотация

В данной статье описывается ценность и значение нравственной культуры среди студентов, поведение людей, а также важность формирования нравственной культуры. Также выделены сведения о значении интеллекта, мышления и чувства в формировании нравственной культуры.

Ключевые слова: Образование, студент, мораль, культура, этика, духовность, общество, личность, добродетель.

SOCIO-PHILOSOPHICAL MECHANISMS OF ETHICAL CULTURE FORMATION IN STUDENTS

Annotation

This article explains the value and importance of moral culture among students, the behavior of people, and the importance of forming moral culture. Also, information about the importance of intelligence, thinking and feeling in the formation of moral culture is highlighted.

Key words: Education, student, morality, culture, ethics, spirituality, society, personality, virtue.

Kirish. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida bir qator amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Yosh avlodning madaniyatini, ma'naviy-axloqiy salohiyatini ko'tarmoq, milliy mafkurasini uyg'otmoq zarur. Zero, o'zini anglagan, millat ma'naviyatini tushungan insongina xalqini, millatini, Vatani, oilasini taniydi. Xalq va millat oldidagi burchini, mas'uliyatini, majburiyatini anglaydi. Insonning ma'naviy-axloqiy barkamol bo'lishi xalq, davlat, jamiyat ma'naviyatiga asos bo'ladi. Shunday ekan, yoshlarga chuqur nazariy va amaliy bilimlar, kasbiy malaka, ko'nikmalar hosil qilish, ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalar va muammolariga to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatish, vatanni sevishtirish, ajdodlari yaratgan bebaho ma'naviy javohirlarni imkon qadar egallash, ularni asrab-avaylash va boyitish, mamlakatimiz kelajagini, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning bugungi holatini chuqur tahlil qilish, jahondagi va mamlakatimizdagi ma'naviy, aqliy bilimlardan foydalanib, voqelikda faol ishtirok etish ruhida tarbiyalash bugungi kun talabidir.

Ijtimoiy-gumanitar va iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayonida milliy istiqbol g'oyasi va mafkurasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosidagi quvchi-yoshlarda ilmiy dunyoqarash, yuksak ma'naviy-axloqiy salohiyat, iqtisodiy, huquqiy va ijodiy tafakkurni, ijtimoiy-siyosiy faollikni shakllantirish kabi talablarni ta'minlash lozimligi alohida qat'iy e'tiborga ega. Ma'naviy-axloqiy dunyoqarashi shakllangan o'quvchi-yoshlarda ma'naviy-axloqiy bilim, ma'naviy-axloqiy tafakkur, ma'naviy-axloqiy his-tuyg'u, ma'naviy-axloqiy idrok fazilatlarini tushunish darajalari rivojlangan bo'ladi. Ma'naviy idrok, axloqiy iroda, xatti-harakat va malakalar bir-birini to'ldirib, o'quvchining shaxsiy hayoti, faoliyatidagi o'z ifodasini namoyish etadi. Ma'naviy-axloqiy barkamollik talaba-yoshlarda mustaqil e'tiqod, dunyoqarash va maqsadga ega bo'lish, ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal birligini ta'minlash, shaxsiy manfaatni jamiyat manfaati bilan uyg'un ko'rish yo'nalishlarida mustahkamlanadi. Axloqiy qadriyatlar mazmun-mohiyatiga ko'ra inson tarbiyasida funksionalligi va ijtimoiy xarakteri bilan aksiologik xususiyatga ega[2].

Bugungi kunning asosiy talabi bo'lgan shaxsning, avvalo, o'ziga nisbatan tanqidiy tahlilning shakllanishi, o'z manfaatini jamiyat manfaati bilan uyg'unlashtirishining asosida insonning o'zini o'zi

nazorat qilishi, baholashi va o'zini o'zi boshqarishi singari ma'naviy va sinergetik jihatlar birligi yotadi. Bu shaxs ma'naviy borligining ajralmas xossalari bo'lgan axloq, bilish va erkinlik hodisalarida namoyon bo'ladi. Bu hodisalarning shaxs hayoti va faoliyatiga turlicha ta'sir ko'rsatishi masalasi hozirgi zamon axloq falsafasining ba'zi muammolarini ko'rib chiqishni taqozo etadi. Ko'pgina oilalarimiz vatandashlarimiz tomonidan axloq, odob, madaniyat va qadriyatlar borasida ilmiy izlanishlar olib borilgan[1].

Adabiyotlar tahlili. Abu Nasr Forobiy bu xususda shunday yozadi: "Fazilat muayyan bir mantiqiy mazmunda ifodalangan mavhum tushunchagina emas, balki odamning go'zallikka, yaxshilikka erishishi uchun qilinadigan faoliyati va xatti harakatlarining aniq ifodasi hisoblanadi". Allomaning fikricha, odamni yaxshi ishlarni qilishga va go'zal xulqlar sohibi bo'lishga da'vat etuvchi ichki (axloqiy) sifatlar fazilatlar deb ataladi. Insonda axloq, odob, iymon, vijdon, halollik, mehnatsevarlik, baynalmilalchilik, insonparvarlik, e'tiqod, vatan-parvarlik, milliy va umuminsoniy tuyg'u, burch va mas'uliyatni his qilish kabi axloqiy sifat va fazilatlar qanchalik kuchli bo'lsa, jamiyat taraqqiyotining zaminlari ham kengayadi, tinchlik, osoyishtalik, hamjihatlik barqaror bo'ladi. Bunday insonlar qancha ko'p bo'lsa, jamiyat shuncha barkamol bo'ladi, ilm-fan, madaniyat rivoj topadi [7].

Axloqiy fazilat-faoliyat, xatti-harakat demakdir. Adolatli ishlarni buniyod qilish bilan odam adolatli bo'lib boradi, madona harakat bilan mard bo'ladi. Odam jamiyatda yashagani sababli uning axloqiy fazilatlarini hech qachon sof, xolis holda namoyon bo'lmaydi, balki faqat ijtimoiy faoliyatidagina amalga oshadi. Shuning uchun barcha axloqiy fazilatlar ijtimoiydir. Axloqiy qadriyatlar tizimida mehnatsevarlik funksionalligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, axloqiy qadriyatlarning boshqa barcha shakllari va ular takomili ham bevosita mehnat orqali ro'yobga chiqadi. Tasavvuf va tariqat ahlining buyuk namoyandasi Bahouddin Naqshband hazratlarining "Dil ba yoru, dast ba kor" (diling Allohda, qo'ling ishda bo'lsin), degan hikmatida "Yaratgan Robbim rizqimizni ham beradi", deb biron bir foydali mehnat qilmay, faqat toat-ibodat bilan mag'rur yurishni emas, balki odam Alloh taoloni diliga jo qilib, baholi qudrat mehnati bilan rizq-u ro'z topib yashashi zarurligi uqtiriladi. Ul zot sharif ayni qoidaga, avvalo, o'zlari amal qilganlar. Ilmni, valiylikni emas, balki halol tirikchilik manbai sifatida kimxobga naqsh solish kasbini tanlab, shu orqali oila tebratganlar. Bu kasb ul zotga o'tadan "ota kasb" sifatida meros o'tgan edi. Hattoki, o'zlariga xizmatkor ham saqlamaganlar. Shuningdek, ul zot

talabalarni madrasaga qabul qilish paytida yoshlardan: “Biron kasbing bormi?”, – deb, albatta, so‘rar ekanlar. Kasbi-kori, hunari yo‘q bolalarni o‘qishga qabul qilmaganlar. Buning sababini Naqshband hazratlari: “Agar kishi hunarli bo‘lsa, u kishi bilimni haqiqatga bag‘ishlaydi, o‘z mehnati bilan kun kechiradi. Bordi-yu, kasbi bo‘lmasa, bilimni tirikchilikka sarf etadi, halol mehnatni unutadi”, – deya izohlaydilar.

Tahlil va natijalar. Axloqiy qadriyatlar insoniy fazilat va xislatlar uyg‘unligini o‘zida mujassamlashtirgan, jamiyatdagi ijtimoiy tartiblar, huquq, odob normalarini anglash, unga rioya qilish hamda qadrlash asosida takomillashib boradigan umuminsoniy fazilatning ham fikriy, ham amaliy me‘yorlari majmuidir. Axloqiy fazilatlar tabiatini teran tahlil qilgan Arastu fikricha, fazilat ruhning holati bo‘laolmaydi, uni insonlarga tabiatning o‘zi bermaydi, balki tabiat fazilatli bo‘lishning imkoniyatlarini yaratadi, xolos. Barcha axloqiy fazilatlar-adolat, do‘stlik, muhabbat, mardlik, mo‘tadillik, saxiylik, sulhparvarlik, xushfe‘llik va hokazolar faqat inson faoliyatida namoyon bo‘ladi.

Axloqiy madaniyat quyidagicha tuzilmalarga ega:
jamiyat subyektlari axloqiy ongining belgilari va elementlari;
xulq-atvor va muloqot madaniyati;
axloqiy xatti-harakatlar va faoliyat.

Bulardan ma‘lum bo‘ladiki, bir tomondan, axloqiy madaniyat madaniyatning jamiyat moddiy va ma‘naviy hayotigaoid boshqa turlari bilan muvofiq keladi, boshqa tomondan esa u jamiyatdagi illatlar–yomonlik, tengsizlik, vijdotsizlik, nomussizlik, g‘urur-sizlik kabi boshqaaxloqqa qarshi hodisalarga ziddir.

Yoshlik – bu axloqiy idealni izlash, maqsadlarni va hayotiy pozitsiyani shakllantirish, kasb tanlash, oilaviy hayotga tayyorgarlik pallasidir. Hayotga qadam qo‘yayotgan yigit-qizlar uchun ular faoliyati foydali bo‘lishigina emas, balki bu faoliyat o‘z shaxsiy maqsadlariga muvofiqligi, hayot rejalarining amalgaoshishiga mumkin qadar to‘laroq ko‘maklashishi ham g‘oyat muhimdir.

Bugungi kunda jamiyatimiz oldida turgan asosiy vazifa mustaqil fikrlashchi erkin shaxsni shakllantirishdan iborat. Bu o‘z qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotdaaniq maqsadga ega bo‘lgan insonlarni tarbiyalashdan iborat. Bunday yoshlar uyushgan jamiyatni, ular barpo etgan ma‘naviy-ruhiy muhitni soxtaqaqidalar bilan buzib bo‘lmasligiga ishonadilar.

Axloqiy madaniyat jamiyat axloqiy ongi va dunyoqarashining rivojlanganlik darajasini, “axloqi yasama” va “axloqi haqiqiy”ning birligini; xulq-atvor, muloqot va faoliyat tizimida yaxshilik, or-nomus, vijdon, burch, g‘urur, sevgi, birgalikdagi ishlash va hokazolar me‘yorlarining namoyon bo‘lishini; hayot faoliyatini insonparvarlik, egoizm vaalturizmni oqilonamuvofiqlashtirish, tinchliksevarlik tamoyillari asosida yo‘lga qo‘yishni ifoda etadi.

Axloqiy madaniyatning o‘ziga xos shakli hisoblangan subyekt axloqiy madaniyati jamiyat axloqining hosilaviy va

subyektivlashgan in‘ikosidir. Uning ayrim ko‘rinishlarida odob va axloq aynanlashtiriladi, tushunchalar esa sinonimlar sifatida tushuniladi. Axloq esa qanday bo‘lsa, shundayligicha mavjud bo‘lgan chinakam, haqiqiy, amaliy narsa sifatida baholanadi. Ushbu ma‘noda, odob vaaxloq o‘rtasidagi farq axloqiy (amaliy) madaniyat- ning qat‘iy belgisi – “axloqi yasama” va “axloqi haqiqiy”, ya‘ni so‘z vaamal birligini aks ettiradi[5].

Shaxs axloqiy madaniyati quyidagicha tuzilmaga ega:

axloqiy ongning rivojlanganligi (yaxshilik, or-nomus, burch va boshqalar haqidagi axloqiy his-tuyg‘u va kechinmalar, axloqiy iroda, axloqiy qadriyatlar);

axloqiy dunyoqarashning yuqoriligi (axloqiy ideallar, tamoyillar va me‘yorlar, qadriyatlarga yo‘nalganlik, axloqiy ehtiyojlar, maslak va e‘tiqodlar);

axloqiy sifatarning mukammalligi (insonparvarlik, kishilarga samimiyat va hurmat bilan munosabatda bo‘lish, hamdardlik, xayrixohlik, adolatlilik, vijdonlilik, yaxshilikka intilish, to‘g‘rilik, halollik, e‘tiborlilik, burch va mas‘uliyatni sezish va tushunish va h.k.);

axloqiy sifatlarni yuzaga chiqarish, axloq tamoyillari va me‘yorlariga rioya qilish.

Shaxs axloqiy madaniyati mazmunan guruh yoki jamiyat axloqiy madaniyatiga to‘g‘ri keladi. Lekin ulardan o‘zining subyektiv fikrlashi va ifodalanishi, muayyan axloqiy qadriyatlarni ustuvor qo‘yishi va ularga yo‘nalganligi bilan farqlanadi.

Muloqot jarayonidagi axloqiy madaniyat qator zarur elementlarni o‘z ichigaoladi, bular:

muloqot maqsadini belgilash;

sharikni tanlash;

turtki beradigan motivlar va kayfiyat;

muloqot shakllari va usullari;

yakuniy natijalar va ularga baho berish.

Shaxs ichki madaniyati muloqotning tashqi madaniyatini shakllantirishda yetakchi, belgilovchi rolni o‘ynaydi, unda namoyon bo‘ladi. Namoyon bo‘lish usullari turli-tuman bo‘lishi mumkin, masalan, boshqaodamlar bilan salomlashish, muhim axborotlar bilan almashish, turli shakllardagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, do‘stlik, sevgi rishtalari bilan bog‘lanish va h.k.

Axloqiy madaniyatning shakllanishida aql-idrok, tafakkur va his-tuyg‘u ham muhim o‘rin tutishi tabiiy. Bu jarayon kishilarning hissiy kechinma va kayfiyatlariga ham bog‘liq, chunki inson kayfiyatida uning hayot sharoitlari, ijtimoiy ahvoli, milliy xususiyati, madaniy saviyasi, shaxsiy taqdiri, yoshi va hokazolar aks etadi. Axloqiy madaniyatda zamon ruhi, ijtimoiy kuchlarning kayfiyati, intilishi ham o‘z ifodasini topishi shart. U bugungi O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda istiqlol dunyoqarashini shakllantirishga ulkan ta‘sir ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Akbarov N. Texnika oliy o‘quv yurti talabalarida kasbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari: Avtoref. ped.fan.dok. dis. – T.: TDP, 2008. –B. 45.
2. Kenjaeva D.R. Madaniyatning tarbiyaviy funksiyasi va uning ijtimoiy falsafiy tahlili: fals.fan.nomz. ... diss. – T.: 1999. – B. 26.
3. Musurmonova O. Yuqori sinf o‘quvchilari ma‘naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: ped.fan.dok. ... diss. – T.: 1993. – B. 364.
4. Masharipov I.B. Ma‘naviy omillarning rahbar kadrlar kasbiy madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni: Avtoref. siyosiy... fan.nom. – 2009. – B. 50.
5. Qosimov Sh.U. Kasb-hunar kollejlardaamaliy kasbiy ta‘limni tashkil etishning metodik asoslarini takomillashtirish / Ped. fan. fal. dok. ... dis. – T., O‘MKHTTKMOQTI, 2018. – B. 176.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O‘qituvchi, 1992. – B. 62.
7. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. // Tanlangan asarlar. Mas‘ul muharrir:
8. akad. M. Xayrullaev. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – B. 222.
9. Iskandarovich U.I. (2021). Theoretical Fundamentals of Introduction of Electronic Educational Tools to the Educational Process. Central asian journal of theoretical &Applied sciences, 2(1), 1–7.
10. Kuziev S.S. (2019). Practical and methodological bases of technology in creating electronic educational resources reserves. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(3), 326–329.
11. Умиров И. (2021). Таълим жараёнида электрон таълим воситаларини қўллашнинг педагогик-психологик омиллари. Academic research in educational sciences, 2(2).